

## **OILADAGI O'ZARO MUNOSABATLAR SHAXS KAMOLOTINING OMILI SIFATIDA**

**Suyunova Dildora, Baxmal tuman  
2-sonli pedagogika kolleji psixologi**

Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib shaxs sifatida shakillanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti, taraqqiyotning ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lган inson kamolotida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir.

Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo`rg'on hisoblangan o`zbek oilalarining serildizlik serbuloqlik, xususiyatlari qadim-qadimdan va hozir boshqa millat kishilarida ham hayrat ham hurmat uyg`otgan xususiyatdir. O`zbek oilasida ayol ona ana shu qo`rg`onning eng muqaddas eng mo`tabar oilaning mustahkamligini ta'minlovchi insonlardir.

Ayollarning niyati xolis yuragi toza, qalpi pok. Chindan ham eng ko`p mehnat qiladigan oilani eng sevadigan oilani haqiqiy oila, erkaklarni erkak qiladigan ham ayollarimizdir<sup>1</sup>.

Oila tom ma'noda tarbiya maskani hisoblanadi. Bola qalbining iymonli va rahnamoligi yoki aksincha-bag`ritosh va salbiy fe'l atvor egaligi ham avvalambor oilada shakllanadi.

Yaxshi oila xushxulqli iymonli solih kishilarni ibratli insonlarni tarbiyalaydi. Bordi-yu oilada tarbiya masalasi izdan chiqgan bo'lsa, jamiyat uchun hatto o'zi uchun ham nafi tegmaydigan noqobil farzandlar shakllanadi, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etadi va shu sababdan yaxshi amallar o'rniga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz quradi.

Ma'lumki o`zbek xalqi azaldan o`zining bolajonligi oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q va ustini but qilish o`z yo`liga lekin, bolalarimizni yoshlik

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. Toshkent. 2015 yil. 230- bet.

chog`idan boshlab milliy tarbiya, odob yuksak ma`naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Oila qurildi farzandlik ham bo`lindi. Ammo bu oilada bola tarbiyalash uchun sog`lom muhit mavjudmi? Ota-on va farzandi uchun namuna bo`la oladimi? Ota-onasiga qarab o`sayotgan bola ulardan faqat ijobjiy hislatlarini olayaptimi? Shu o`rinda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytgan bir gapga to`xtalmasdan iloj yo`q. Zero ular shunday deydilar. Oilaviy tarbiy masalasida xatoga yo`l qo`ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma`naviy iqlimni o`zaro hurmat axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo`lur edi<sup>2</sup>.

Yuqoridagi savollarga javob toppish uchun bugungi kun oilalariga nazar tashlaymiz. To`g`ri jamiyatimizda hammaga ibrat bo`layotgan oilalar juda ko`pchilikni tashkil qiladi ammo, salbiy illatlar: birovning moliga ko`z olaytirib o`g`irlilik qilayotgan, halollik yo`lidan ketish o`rniga harom mol dunyo yigishga berilib ketgan kishilar, hatto vatanga hoyinlik qilayotgan shaxslar ham shakllanayotganligi barcha vatanimning fuqorosiman degan shaxslarni tashvishlantirishi shakshubhazis.

Farzandini yaxshi tarbiyali bo`lishi unda ham insonga xos sifatlarni shakllanishi uchun avvalo ota-on masuldir. Ota-onaning o`zi tarbiyali bo`lmog`i lozim. O`zbek xalqida bir maqol bor “Qush uyasida ko`rganini qiladi”.

Shu o`rinda muhtaram prezidentimiz shunday deydilar, “Yangi avlodni tarbiyalash-xalqni tarbiyalash demakdir”<sup>3</sup>.

Biz yuqorida aytib o`tdik. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Xususan bolada iroda odatlar, fe'l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Oilada bo`ladigan o`zaro sog`lom muloqot esa farzandlarda yaxshi xulqni shakllantirishda

<sup>2</sup> I.A.Karimov. “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch”. Toshkent. 2010 yil. 55 bet.

<sup>3</sup> I.A.Karimov. ““Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. Toshkent. 2015 yil. 235- bet.

ishtirok etadigan eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ota-onal avvalo farzandi bilan muloqotni to`g`ri yo`lga qo`ymog`i lozim. Shundagina farzand ota-onaga nisbatan oilasiga nisbatan ma`suliyat hissini his eta oladi.

Oiladagi muloqotni tashkil etishda quyidagi jihatlarga:

- bolaning yetti yoshgacha bo`lgan bosqichida muloqot atrof olamni ko`rsatishga va undagi salbiy sifatlarni o`z vaqtida tuzatishga;

- yetti yoshdan, o`n va o`n bir yoshgacha muloqot samiyimiyl va topshiriq va nazoratga, o`zaro tushunishga asoslanilgan bo`lishiga;

- o`n ikki yoshdan, o`n besh yoshgacha oiladagi muloqot do`stona, tushinish, o`zaro yordam ko`rinishiga ega bo`lishiga va shu kabilarga asoslanilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Farzand tarbiyasidek ma`suliyatli ishga barcha shu millatning vakili birdek ma`sulmiz. Zero farzandlari sog`lom yurt qudratli bo`lur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Jalilova S.X., Aripova S.M. **Maktabgacha yoshdagি bolalar psixologiyasi (o`quv qo`llanma)**. Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017. — 496 b
2. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi. Adabiyot nashriyoti. T., 2006y.
3. Otavaliyeva O'. Bolalar psixologiyasi. (O`quv qo`llanma).1-2qism. Samarqand, 2003yil.
4. G`oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent. Noshir. 2010.-360 b.
5. Akmal A. Creativity and skills formation features creative thinking in preschool children through literary creation.: Creativity and skills formation features creative thinking in preschool children through literary creation //Журнал дошкольного образования. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
- 7 Khasanova Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.” MentalEnlightenment Scientific-Methodological Journal. Vol.2020 : Iss.2. Article 15.

[:https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15](https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15)

8. hasanova, navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/5579](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579)